

BANKLARDA MUAMMOLI KREDITLAR BILAN ISHLASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH

Xoshimov Xasan Shokirjon o‘g‘li

Bank moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada banklarda muammoli kreditlar bilan ishslash amaliyotini takomillashtirish yuzasidan ma’lumotlar keltrilgan bo’lib. Tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlar bilan ishslashning bank tizimining barqarorligiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi va muammoli kreditlar esa jiddiy tahdid soluvchi omil hisoblanadi. Ushbu tadqiqotda tijorat banklarida, muammoli kreditlarni boshqarishning zamonaviy usullari va ularni takomillashtirish yo‘llari o‘rganilgan. Ishda kredit portfelinini tahlil qilish, risklarni baholash, kredit monitoringi tizimini takomillashtirish va qayta tuzilish mexanizmlarini ishlab chiqish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Muammoli kredit, kredit portfeli, risk boshqaruvi, diversifikatsiya, innovatsion yechimlar, raqamli texnologiyalar, tijorat banki, iqtisodiy samaradorlik, kreditlash, sanoat korxonalari, moliyalashtirish, iqtisodiy rivojlanish, risk boshqaruvi, innovatsion yechimlar, bank kreditlari.

Respublikamiz bank amaliyotida so‘nggi yillarda berilayotgan kreditlar dinamikasi va ularni qaytarishda yuzaga kelayotgan qarzdorlik muammosi, uni yuzaga keltirayotgan omillar hamda yuzaga kelgan qarzdorlik bo‘yicha tijorat banklarida shakllantirilayotgan zahiralar holati haqida biroz to‘xtalib o‘tish lozim. So‘nggi yillarda kreditning iqtisodiyotdagi o‘rni va roligina emas, balki kredit munosabatlarini tashkil etish jarayoni ham sifat jihatidan ancha o‘zgardi. Mijozlarni pul oqimi nobarqaror bo‘lgan sharoitda tijorat banklari kredit berish to‘g‘risidagi qarorni qabul qilishda asosiy e‘tiborni yuqori likvidli obyektlarni garovga olishga qaratadi. Bu esa, amaliy jihatdan to‘g‘ri qabul qilingan qaror hisoblanadi. Chunki, kreditni qaytarish vaqtin kelganda mijozning joriy hisobraqamida pul mablag‘larini bo‘lmay qolish ehtimoli yuqori bo‘ladi. Ayniqsa, iqtisodiyotni pul mablag‘lari bilan ta‘minlanganlik darajasi past bo‘lgan mamlakatlarda xo‘jalik yurituvchi subyektlarni pul oqimi nobarqarorlik darajasini yuqori bo‘lishi kuzatiladi. Kreditlar ustidan joriy nazoratni amalga oshirishda ushbu operatsiyalar turli

darajalarda ikkita xolis mansabdon shaxs tomonidan tekshirilishi lozim. Avvalo joriy nazorat jarayoni ushbu mijozni kreditlashni amalga oshirgan yoki ushbu kreditni ishini yuritish topshirilgan bank xodimi tomonidan amalga oshirilishi lozim. Bundan tashqari, har bir kredit ishining ma'lum davriy oraliqlarda tahlil qilib borish, kredit operatsiyalarini amalga oshirib borish ustidan nazorat qilish topshirilgan shaxs tomonidan amalga oshirilishi lozim. Muammoli kreditlar bank tizimining barqarorligiga jiddiy tahdid soladi, ayniqsa makroiqtisodiy inqirozlar davrida. O'zbekistonda bank sektorining rivoji bilan birga kredit riskini boshqarishning zamonaviy usullarini joriy etish zarurati ortib bormoqda“

Sh.Z.Abdullayevaning fikriga ko'ra “Bank resurslarini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalar banklarning passiv operatsiyalari deyiladi. Passiv operatsiyalar yordamida tijorat banklarning passiv va aktiv - passiv schetidagi pul mablag'larining salmog'i oshib boradi”. “Banklarning passiv operatsiyalari ularning faoliyatini tashkil qilishda katta rol o'ynaydi. Passiv operatsiyalar yordamida tijorat banklari kreditlash uchun zarur bo'lgan-kredit resurslarini tashkil qiladi” deb yozib qoldirgan. Iqtisodchi olimlar U. Azizov, T. Karaliyev va T. Boboqulovlar bank kapitali tijorat banki faoliyatida vujudga keladigan iqtisodiy tanglik hamda ziddiyatli vaziyatlar sharoitida xavfsiz “moliyaviy yostiq” vazifasini bajarishi bilan birga, bank kutilmaganda moliyaviy qiyinchilik va yo'qotishlarga duch kelganda unga to'lovga qobiliyati darajasini saqlab qolish va faoliyatini davom ettirish imkoniyatini beradigan moliyaviy manba hisoblanadi.

Jahon amaliyotida kreditlarni yagona, umumlashgan tasnifi yo`q. Chunki kreditlarning turli xil shakllari har bir mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga, uning urf-odatlariga, aholi orasida kreditlarni berish va qaytarish bo'yicha tarixan shakllangan (tovar shaklida, pul shaklida, boshqa shakllar va shartlarda) usullariga bog'liq bo'ladi. Kreditning asosiy turlari: 1. Bank krediti. 2. Davlat krediti. 3. Iste'mol krediti. 4. Tijorat krediti. 5. Lizing. 6. Xalqaro kredit.

Kredit haqida ma'lumotlarni ko'rib chiqanimizdan kegin adabiyotlarda muammoli kreditlarning asosiy sababi sifatida kredit riskini baholashdagi kamchiliklar ham ayttib o'tish joyiz deb bildim. Zaif kredit andarrayting standartlari va noto'g'ri tekshirish

jarayonlari yuqori muammoli kreditga olib kelishi mumkin. Normativ me'yoriy-huquqiy baza muammoli kreditning tarqalishiga ta'sir qilishi mumkin. Tadqiqotlar tartibga soluvchi o'zgarishlarning muammoli kredit darajasiga ta'sirini o'rganib chiqdi, bu esa sekin tartibga solish muammoli kreditlarning yuqori darajalariga olib kelishi mumkinligini ko'rsatdi. Muammoli kreditlarning oqibatlari quyidagilarga olib kelishi mumkin. Muammoli kredit to'planishi alohida banklarning barqarorligiga va kengroq moliyaviy tizimga tahdid solishi mumkin. Olimlar muammoli kredit va moliyaviy inqirozlar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishdi. Xorijiy amaliyotda "muammoli kredit" tushunchasi "ishlamaydigan kredit" tushunchasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u Xalqaro valyuta jamg'armasining ishlamaydigan kreditlar bilan ishlash bo'yicha hujjatida ko'rsatilgan. U quyidagicha talqin qilinadi: ishlamaydigan kredit mavjud bo'lgan kredit asosiy qarz yoki foizlarni 90 kun yoki undan ko'proq muddatga kechiktirish yoki unga tenglashtirilgan foizlarni to'lash 90 kun yoki undan ko'proq, kapitallashtirilgan, qayta moliyalashtirilgan yoki shartnoma bo'yicha kechiktirilgan yoki to'lovlar 90 kundan kamroq muddatga kechiktirilgan, ammo kreditni to'lash mumkin emasligini tasdiqlash uchun jiddiyroq sabablar mavjud masalan, qarzdor bankrotlik to'g'risida ariza bergen bo'lishi kerak. Muammoli kreditlarning paydo bo'lishi asosiy sabablari 1 – jadvalda ko'rishimiz mumkin.

Muammoli kreditlarni boshqarishning quyidagi usullari mavjud:

- ✓ Kreditni qayta ishslash strategiyalari;
- ✓ Risklarni boshqarish amaliyoti;
- ✓ Tartibga solish chora-tadbirlari.

Muammoli kreditning belgilari:

- ✓ muntazam to'lovlar kechiktirish asoslarsiz;
- ✓ qarz oluvchining moliyaviy hisoboti yetishmasligi yoki ularni taqdim etishdan bosh tortishi;
- ✓ qarz oluvchi bilan uzoq vaqt aloqa qilmaslik;
- faoliyat yo'nalishini o'zgartirish.

1 jadval – Muammoli kreditlarning paydo bo'lishi asosiy sabablari.

Iqtisodiy omillar	Iqtisodiy tanazzul yoki retsessiya qarz oluvchilarning moliyaviy imkoniyatlari yomonlashishiga, ularning kreditlarni qaytarish qobiliyatini pasayishiga olib kelishi mumkin. Inflatsiya va narxlar darajasining o‘zgarishi qarz oluvchilarning moliyaviy majburiyatlarini oshirishi va kredit majburiyatlarini bajarishni qiyinlashtirishi mumkin
Ishsizlik va daromadning yomonlashishi	Ish joylarini yo‘qotish va qarz oluvchilarning daromadlarini kamaytirish kreditlarni to‘lashni qiyinlashtirishi mumkin. Iqtisodiy qiyinchiliklar va korxonalarining moliyaviy yo‘qotishlari korporativ mijozlarning to‘lovga qodir emasligiga olib kelishi mum
Qarz oluvchining moliyaviy holatidagi o‘zgarishlar	Tibbiy to‘lovlar yoki baxtsiz hodisalar kabi kutilmagan xarajatlar qarz oluvchining moliyaviy ahvoliga ta’sir qilishi mumkin. Qarz yukining ortishi yoki kredit tarixining yomonlashuvi tufayli qarz oluvchining kredit layoqatining yomonlashishi mumkin
Foiz stavkalarining o‘zgarishi	Kreditlar bo‘yicha foiz stavkalarining oshishi qarzga xizmat ko‘rsatishni qimmatroq va qarz oluvchilar uchun qiyinlashtirishi mumkin. O‘zgaruvchan foiz stavkalari kredit to‘lovlarda kutilmagan o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin
Kredit reytingi yetarli emasligi	Kredit berishda qarz oluvchining moliyaviy barqarorligi va to‘lov qobiliyatini yetarli darajada baholamaslik noto‘g‘ri mijozlarga kredit berilishiga olib kelishi mumkin
Tizimli xavflar	Boshqarib bo‘lmaydigan tizimli xavflar, masalan, moliyaviy inqirozlar yoki siyosiy voqealar moliyaviy bozorlarga ta’sir qilishi va mijozlarning kredit qobiliyati yomonlashishiga olib kelishi mumkin
Kredit	Xavflarni yetarli darajada boshqarish va bankning

portfelini samarasiz boshqarish	kredit portfelini yetarlicha monitoring qilmaslik muammoli kreditlarning ko‘payishiga olib kelishi mumkin
---------------------------------------	---

Bank ushbu turdagি muammolarni bir necha usul bilan hal qiladi: Foiz stavkasini va doimiy to‘lov miqdorini o‘zgartirish maqsadida kredit shartnomasini qayta ko‘rib chiqish, yoki qarzning holatini muddati o‘tgan o‘rniga hozirgi holatiga o‘zgartirish (banklar ushbu chorani, ko‘pincha qarz oluvchi bilan hamkorlikni davom ettirishni xohlaganida amalga oshiradi). garov asosida tuzilgan kredit shartnomasini bekor qilish. Shu bilan birga, bank qarzdorning aktivlari bir qismini kreditni to‘lash uchun sotadi va qarz oluvchining o‘zi buni ixtiyoriy ravishda amalga oshiradi; garovni sotish. Bu holda, qarz oluvchi va bank o‘rtasidagi barcha munosabatlar to‘xtatiladi, chunki bu chora ancha radikaldir.

1-rasm. Muammoli kreditlarni samarali boshqarish yo‘llari

Muammoli kreditlarni samarali boshqarish yo‘llari			
--	--	--	--



Yuqoridagi 1-rasmga ko‘ra tijorat banklarida muammoli kreditlarni samarali boshqarish usullari keltirilgan bo‘lib unga ko‘ra bugungi kunda tijorat banklarida o‘z kapitalini saqlash, yuqori likvidlik, risklarni yumshatish hamda normativ muvoifiqlik kabi omillar nafaqat muammoli kreditlarni boshqarishda, balki bank moliyaviy samaradorlik ko‘rsatkichlarini pozitiv holatiga olib kelishda aks etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruving 13-iyundagi 14/5-sonli qaroriga ilova “Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan

foydalish tartibi to‘g‘risida”gi nizomga asosan bank aktivlari sifatiga ko‘ra “standart”, “substandart”, “qoniqarsiz”, “shubhali” va “umidsiz” toifalarga tasniflanadi va sifati “qoniqarsiz”, “shubhali” va “umidsiz” deb tasniflangan kreditlar muammoli kreditlar sanaladi. Ular bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplashga mo‘ljallangan majburiy zaxiralar maxsus zaxira deb ataladi. Banklar kredit portfelidagi bank kreditlarining sifati “standart” tasnifidagi qaytarilmagan kreditlar qoldig‘i uchun 1 foiz, “substandart” tasnifidagi qaytarilmagan kreditlar qoldig‘i uchun 10 foiz, “qoniqarsiz” tasnifidagi qaytarilmagan kreditlar qoldig‘i uchun 25 foiz, “shubhali” tasnifidagi qaytarilmagan kreditlar qoldig‘i uchun 50 foiz va “umidsiz” tasnifidagi qaytarilmagan kreditlar qoldig‘i uchun 100 foiz maxsus zaxira shakllantirishi lozim. Markaziy bankda tijorat banki aktivlari bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun majburiy zaxira depoziti tashkil qilingan hamda ushbu majburiy zaxira depozitiga tijorat banklari o‘z aktivlari bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarga qarshi shakllantirilgan maxsus zaxiralar summasiga teng miqdordagi mablag‘larni vakillik hisobvaraqlaridan o‘tkazib borish talabi qo‘yilgan.

2 jadval Tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) to`g`risida 2024-yil 1-mart holatiga ma'lumot

mlrd. so`m

No	Bank nomi	Kreditlar	Muammoli kreditlar (NPL)	Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi
Jami		472 407	20 850	4,4%
Davlat ulushi mavjud banklar		331 151	16 142	4,9%
1	O‘zmiliybank	98 797	3 400	3,4%
2	O‘zsanoatqurilishbank	57 397	2 489	4,3%
3	Agrobank	54 498	2 020	3,7%

4	Asaka bank	38 398	1 875	4,9%
5	Xalq banki	24 666	1 841	7,5%
6	Biznesni rivojlantirish banki	21 104	2 905	13,8%
7	Mikrokreditbank	14 199	912	6,4%
8	Turon bank	12 073	305	2,5%
9	Aloqa bank	9 938	394	4,0%
10	Poytaxt bank	81	0,1	0,1%
Boshqa banklar		141 256	4 709	3,3%
11	Ipoteka-bank	37 488	3 019	8,1%
12	Kapital bank	26 978	490	1,8%
13	Hamkorbank	16 445	120	0,7%
14	Ipak yo‘li bank	11 962	111	0,9%

Mazkur jadvalda ko‘rishimiz mumkin tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) to`g`risida 2024-yil 1-mart holatiga ma'lumotiga ko‘ra Hamkorbankning kreditlar soni 16 445 tani, muammoli kreditlari (NPL) 120 ta Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi 0,7 % ni tashkil etganini ko‘rishimiz mumkin. Respublikada muammoli kreditlar miqdori 2024-yil boshidan beri 3,3 trillion so‘mga o‘sdi. Bir yil davomida esa bu miqdor 8,5 trillion so‘mdan ko‘proq oshdigani ma’lum qilindi. Markaziy bank hisobotiga ko‘ra, aprelda O‘zbekiston banklaridagi jami kredit qo‘yilmalari miqdori martdagiga nisbatan 5,4 trillion so‘mga oshib, 483,6 trillion so‘mga yetgan bo’lib. Shundan jismoniy shaxslarga 156,1 trillion so‘m, yuridik shaxslarga 327,5 trillion so‘m

kredit ajratilgan. O‘tgan oyda ipoteka kreditlarining umumiy ulushi 60,7 trillion so‘mni, mikroqarzlar 28 trillion so‘mni, iste’mol kreditlari 45,4 trillion so‘mni tashkil etgdn edi. Hisobot davrida yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlarning eng yuqori ulushi sanoat (29 foiz) hamda qishloq xo‘jaligi (11 foiz) sohalariga to‘g‘ri [kelgan](#) ma’lum bo’ldi. Aprel oyida jami kredit qo‘yilmalaridagi muammoli kreditlar ulushi martdagiga nisbatan 1,7 trillion so‘mga oshib, 23,3 trillion so‘mni tashkil etdi. Bunda “O‘zsanoatqurilishbank” muammoli kreditlari bir oyda 674 milliard so‘mga (umumiy 3 trillion so‘m), “Ipotekabank”niki 482 milliard so‘mga (3,2 trillion so‘m), “Milliy bank”niki 333 milliard so‘mga (4,2 trillion so‘m) oshdi va boshqa banklardagiga qaraganda eng yuqori o‘sishni qayd etdi. Markaziy bank ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda 2020-yil apreldagi muammoli kreditlar miqdori 5,2 trillion so‘m [bo‘lgan](#). Keyingi yillarning aprel oylarida bu ko‘rsatkich sezilarli o‘sish tendensiyasiga o‘tgan. Xususan, 2021-yil apreliida muammoli kreditlar ulushi 12,9 trillion [so‘mga](#), 2022-yilda 18 trillion so‘mga [yetgan](#). 2023-yil aprel yakunida muammoli kreditlar miqdori 14,8 trillion so‘m [bo‘lgan](#). Ya’ni bir yil davomida qaytarilmagan kreditlar ulushi 3,2 trillion so‘mga kamaygan. Biroq 2024-yil apreliida muammoli kreditlar miqdoridagi o‘sish rekord darajani qayd etgan va bir yilda 8,5 trillion so‘mdan ortiq o’sgan.

[17]

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar.

1. B.O.Tursunov, Sh.T.Ergasheva, (2021) Biznes qiymatini baholash. O‘quv qo‘llanma.
2. Abdullayeva Sh.Z. Kredit va kreditlash amaliyoti. T.: Iqtisod-moliya, 2017-y. – 368 b.
3. U. Azizov, T. Karaliyev, T. Boboqulov va boshqalar. “Bank ishi” darslik. T.: “Fan va texnologiya”. 2016.
4. Bektemirov A., Omonov A.A., Xaydarov Z.Sh., Niyozov Z.D. “Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish” fanidan o‘quv qo‘llanma. –Samarqand: SamISI, 2020.
7. Kulliev I.Y. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining jismoniy shaxslarni kreditlash metodologiyasini takomollashtirish. I.f.d.ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. -TMI, 2023. – 83 b.;

8. Tuxtaboev U.A. Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo‘llari. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati, 2007. 20-b.; Qodirov A. Kredit berish mexanizmini takomillashtirish // Bozor, pul va kredit. 2004 № 6. 10-13b.; .

10. Maxmudov R.H “Tijorat banklarida muammoliy kreditlar bilan ishlash mexaanizmlari” PhD dissertatsiya 2024 yil.

11. [O‘zbekistonda muammoli kreditlar ulushi rekord darajada o‘sdi \(2024\) — Daryo Yangiliklari.](#)

[12.](#) Maxmudov R.H “Tijorat banklarida muammoliy kreditlar bilan ishlash mexaanizmlari” PhD dissertatsiya 2024 yil.

13. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruving (2015) 13-iyundagi 14/5-sonli qaroriga ilova “Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ularidan foydalanish tartibi to‘g‘risida”gi nizom

14. Xoshimov Xasan Shokirjon O’g’li “Banklarda muammoli kreditlar bilan ishlash amaliyotini takomillashtirish (“Hamkorbank” misolida)” magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya 2025 yil.

15. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruving (2023) 7-martdagи 4/11-sonli qaroriga 1-ilova “Banklar va banklar guruhlarining tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablar to‘g‘risida”gi nizom.

16. <https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/1649288> (2024)